

Khan Academy O'zbek

MOLIYAVIY HISOBOT

Fevral, 2020

Aziz do'stlar!

Siz Khan Academy O'zbek jamoasi tomonidan amalga oshirilgan ishlar bo'yicha sakkizinchi moliyaviy hisobotni o'qiyapsiz. Bizni qo'llab-quvvatlaganingiz uchun sizdan juda minnatdormiz va ishimizni yanada shaffof qilish uchun har oyda rasmiy matbuot hisobotini nashr etib boramiz.


Sizning yordamingiz va sarmoyalaringiz tufayli biz, Khan Academy O'zbek tashabbuskor jamoasi, maqsadimizga yanada yaqinlashamiz va dunyoga mashhur Khan Academy bepul onlayn ta'lim platformasini mahalliyashtirish loyhasini amalga oshirish uchun qo'limizdan kelganicha harakat qilamiz.

To'plangan barcha mablag'lar loyihani rivojlantirishga yo'naltiriladi.


2020-yil fevral oyida loyihaga 250 517 290 so'm xayriya qilindi, 131 779 841 so'm sarflandi. Mazkur oyda qilingan xarajatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Xarajatlar ro'yxati	summa so'mda
Ma'muriy xarajatlar	- 17 535 680
Bank xarajatlari	- 221 289
Tarjima	- 25 074 400
Tahrir	- 21 888 240
Video	- 15 771 432
Marketing	- 2 701 600
Fandreyzing (mablag' yig'ish)	- 4 998 400
Ta'mirlash va texnik xarajatlar	- 4 679 900
Aloqa xarajatlari (internet, telefon)	0
Jihoz va uskunalar	- 15 146 800
Ijara haqi	0
Soliqlar	- 20 357 592
Boshqa xarajatlar	- 6 522 980
Jami	- 131 779 841

Xarajatlar foizi quyidagi aylana diagrammada aks etgan:



Fevral oyida xarajatlarning 45,2 foizi (59 615 600 so‘m) kontentni yaratishga, ya’ni matnli materiallarni tarjima qilish, ularni tahrir qilish va video darslarni yaratishga sarflandi:



Bugungi kungacha loyihaga 1 595 667 903 so‘m va 76 595 AQSH dollari xayriya qilindi, 1 228 062 340 so‘m sarflandi.

- Matnni tarjima qilish jarayonini [bu yerda](#) ko‘rish mumkin.
- Video darslarni yaratish jarayonini [bu yerda](#) ko‘rish mumkin.
- Tayyor video darslar [YouTube](#) kanalimizga joylashtirilgan.

Vebsayt — <https://xanakademiya.uz>

Telegram kanal — <https://t.me/khanacademyuzbek>

Facebook sahifa — <https://www.facebook.com/KhanAcademyUzbek>

Instagram sahifa — <https://www.instagram.com/khanacademyuzbek>